

NOTO'LIQ OILA FARZANDLARIDA OTAGA NISBATAN QADRIYATLI MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIIY TARMOQLARNING AHAMIYATI

SAFOYEVA RA'NO JALOLOVNA

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

Ijtimoiy pedagogika yunalishi 2 -kurs tayanch doktoranti

Tel: +998 93 592 78 79

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17295543>

Annotatsiya: Ushbu maqolada noto'liq oilalarda voyaga yetayotgan farzandlarda otaga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish masalasi yoritilgan. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy tarbiya vositasi sifatida tutgan o'rnini tahlil qilinib, ularning farzandlar ongiga otalik mas'uliyati va qadriyatlarini singdirishdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Noto'liq oila, ota obrazi, qadriyatli munosabat, farzand tarbiyasi, ijtimoiy tarmoqlar, otalik mas'uliyati, ma'naviy tarbiya, psixologik rivojlanish.

ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЦЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ К ОTCY У ДЕТЕЙ НЕПОЛНОЙ СЕМЬИ

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема формирования ценностного отношения к отцу у детей, воспитывающихся в неполных семьях. Особое внимание уделяется роли социальных сетей как современного средства воспитания, а также их значению в формировании у детей осознания отцовской ответственности и семейных ценностей.

Ключевые слова: Неполная семья, образ отца, ценностное отношение, воспитание детей, социальные сети, ответственность отца, нравственное воспитание, психологическое развитие.

THE IMPORTANCE OF SOCIAL NETWORKS IN THE FORMATION OF VALUABLE ATTITUDES TOWARDS THE FATHER IN CHILDREN OF INCOMPLETE FAMILIES

Abstract: This article explores the issue of developing value-based attitudes toward fathers among children raised in single-parent families. Special attention is given to the role of social media as a modern educational tool and its importance in instilling a sense of fatherly responsibility and family values in children's minds

Keywords: Single-parent family, father image, value-based attitude, child upbringing, social media, paternal responsibility, moral education, psychological development.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatda ajrimlar sonining ortishi oqibatida ko'plab farzandlar to'liq bo'lmagan oilalarda voyaga yetmoqda. Bu esa bolalarda ota obrazi va unga bo'lgan qadriyatli munosabat shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jarayonda ijtimoiy tarmoqlar vositasida farzandlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish va otalik qadriyatini singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jamiyatda oilaviy barqarorlik masalasi dolzarb

muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Oila – nafaqat jamiyatning asosiy bo'g'ini, balki farzand tarbiyasining eng muhim manbaidir[1][1]. Afsuski, turli sabablarga ko'ra ajralishlar sonining ortishi, natijada noto'liq oilalarda voyaga yetayotgan farzandlar sonining ko'payishi bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Ayniqsa, otaning oiladagi o'rni va unga bo'lgan munosabat bola ongida yetarli darajada shakllanmay qolmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ijtimoiy tarmoqlarning tarbiyaviy salohiyatidan foydalanish zarurati yuzaga chiqadi [2].

ASOSIY QISM

1. *Noto'liq oilalardagi tarbiyaning o'ziga xos jihatlari:* To'liq bo'lmagan oilalarda ota yoki ona tomonidan tarbiya jarayonida muayyan bo'shliqlar yuzaga keladi. Ayniqsa, ota siymosining yetishmasligi bolalarda erkaklik fazilatlarini, mas'uliyat, qat'iyat, mehnatsevarlik kabi qadriyatlarining shakllanishini susaytiradi.

2. *Ota obrazining bola psixologiyasiga ta'siri:* Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota siymosi bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ota nafaqat moddiy ta'minotchi, balki oilaning ma'naviy ustuni sifatida ham bolaga o'rnak bo'lishi lozim. Ota bilan ijtimoiy-emosional aloqaning yo'qligi bolada o'ziga ishonchsizlik, salbiy xulq-atvor yoki ruhiy bo'shliq keltirib chiqaradi [3].

3. *Ijtimoiy tarmoqlarning tarbiyaviy salohiyati:* Ijtimoiy tarmoqlar – bugungi kunda yoshlar ongiga eng kuchli ta'sir ko'rsatadigan vositalardan biridir[4]. Shu bois, ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda farzandlarga:

- Ota siymosi va rolini targ'ib qiluvchi videoroliklar;
- Otalik mas'uliyati haqida intervyular, hikoyalar;
- Mashhur shaxslarning otalik haqidagi chiqishlari;
- Ota va bola o'rtasidagi iliq munosabatlarni ko'rsatadigan kontentlar taqdim etish mumkin.

Bunday materiallar bola ongida “ideal ota” obrazini yaratishga yordam beradi, shuningdek, mavjud otalik rishtalarini qadrlashga o'rgatadi.

4. Amaliy tavsiyalar:

- Pedagog va psixologlar tomonidan ota obraziga bag'ishlangan ijtimoiy tarmoq loyihalarini yaratish.
- Bloggerlar va kontent yaratuvchilarni otalik mavzusini yoritishga jalb qilish
- Maktab va mahalla bilan hamkorlikda “Ota – mehr manbai” kabi onlayn aksiyalar tashkil qilish.
- Bolalar va ota-onalarga ijtimoiy tarmoqlardan maqsadli foydalanish bo'yicha seminarlar o'tkazish.

XULOSA

Noto'liq oila farzandlarida otaga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish murakkab, ammo muhim jarayondir. Bu yo'lda ijtimoiy tarmoqlar samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Muhimi, ushbu platformalarda bolaning ongiga ijobiy va qadriyatlarga boy kontentlar taqdim etilishi lozim. Ota obrazini hurmat qilish, qadrlash, unga mehr bilan qarash kabi fazilatlar yosh avlod qalbida erta shakllansa, jamiyatda barqarorlik va sog'lom munosabatlar kuchayadi.



Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova, D. Oilaviy tarbiya psixologiyasi. – Toshkent : Fan va texnologiya, 2020. – 135 b.
2. Qurbonova, M. Ota-ona va bola munosabatlari. – Samarqand : Ilm ziyo, 2019. – 122 b.
3. Sharipova, D. Oilada notinchlik va uning farzand ruhiyatiga ta'siri // Pedagogik izlanishlar jurnali. – 2021. – №3. – B. 45–49.
4. Yusupova, N. Ota shaxsining bolaning axloqiy kamolotidagi roli // Ijtimoiy fanlar. 2020. №2. – B. 28–31.
5. Ergashev, O. Psixologik muhit va farzand tarbiyasi // Ziy-Media. 2019. – B. 77–80.
6. Zamonaviy yoshlar va ijtimoiy tarmoqlar URL: www.pedagog.uz
7. Ota obrazining farzand tarbiyasidagi o'rni URL: www.ziyouz.uz
8. Blogerlar va ijtimoiy ta'sir URL: www.hayotiytajriba.uz
9. G'ulomov, R. Tarbiya va axloq. – Toshkent : Yangi asr avlodi, 2018. – 94 b.